

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.Maxmudova

Bakir Cho'ponzoda adabiy merosini o'rganishning o'zbek va Ozarbayjon xalqlari uchun pedagogik ahamiyati 6

F.O'.Toshboltayev

Integration of digital tools into the educational process 9

T.S.Aldasheva

"Etnomadaniyat" fani asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning metodik mazmuni 12

S. Sh.Abdullayev

Dasturlash fanini o'qitishning dasturiy-metodik ta'minotini takomillashtirish 16

I.M.Alimjonova

Kohlbergning axloqiy rivojlanish bosqichlari orqali til o'rganuvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish 21

A.H.Matyoqubova, X.X.Yuldashxodjayev

Turon teatr truppasi: o'zbek sahna san'atining shakllanishida ijtimoiy-ma'naviy omil 24

N.M.Ikromova, B.Isalayev

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida oliy ta'lim tizimi amalga oshirilgan islohotlar (1991-2000) 27

M.M.Mo'minova, T.V.Jo'rayev, M.M.Turdimatov

Bo'lajak pedagoglarning axborot xavfsizligi kompetensiyasini baholash mezonlari va metodlari ... 32

Q.B.Sobirjonov

Raqamli ta'lim tizimida ilmiy-pedagogik yonadshuv asosida ma'lumotlarni tahlil qilish 38

P.N.Toshmurodov, B.E.Xujanov

Molekulyar fizikaga oid masalalarni raqamli texnologiyalar yordamida yechish usullari 41

X.D.Muqimova

Kommunikativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasi 46

X.N.Abduraxmonov

Tibbiy ta'limda diagnostik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ pedagogik strategiyalari: tibbiyot talabalari o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot 49

I.I.Baxromova

Adaptiv platformalarning til o'rganishdagi imkoniyatlari 54

Y.D.Kambarova

Есть ли роль автономии студентов на занятиях esp? 58

T.D.Namozova, Sh.D.Jo'raboyeva

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kreativlik 63

Sh.N.Abdullaeva

Innovative approaches to teaching english as a foreign language: contemporary methodologies and digital integration 72

V.I.Xoldarova

Raqamli texnologiyalar asosida boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodlari 79

N.Z.Umarova

Chet tili o'qitish jarayonida sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantirish usullari (poetik matnlar yordamida) 82

I.A.Tuychiyev

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun innovatsion harakat dasturlari va pedagog-mutaxassislarining kasbiy salohiyatini oshirish mexanizmlari 87

E.Muxtarov

So'nuvchi mexanik tebranishlarni raqamli texnologiyalar asosida interaktiv o'qitish metodikasi 92

B.S.Shermuhammadova

Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari 100



UO'K: 37.013.37.013.2.372.

KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNI MEDIATORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI**ТЕХНОЛОГИЯ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ К МЕДИАТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ КОММУНИКАТИВНОГО ПОДХОДА****TECHNOLOGY FOR PREPARING FUTURE TEACHERS FOR MEDIATION ACTIVITIES BASED ON THE COMMUNICATIVE APPROACH****Muqimova Dilbarxon Xusanboyevna** 

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada kommunikativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasi ilmiy jihatdan asoslanadi. Mediatsiya jarayonida pedagogning nizolarni oldini olish va hal etishdagi vositachilik roli, muloqot madaniyati, faol tinglash, empatiya, tolerantlik kabi kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari yoritiladi. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, rolikli o'yinlar, muammoli vaziyatlarni modellashirish va hamkorlikda fikrlash jarayonlari orqali mediatorlik faoliyatiga tayyorlashning samarali pedagogik sharoitlari asoslab beriladi.

Аннотация

В данной статье обоснована технология подготовки будущих педагогов к медиативной деятельности на основе коммуникативного подхода. Раскрываются механизмы формирования таких компетенций, как культура общения, активное слушание, эмпатия, толерантность и роль педагога в предотвращении и урегулировании конфликтов. Обоснованы эффективные педагогические условия подготовки к медиативной деятельности посредством интерактивных методов, ролевых игр, моделирования проблемных ситуаций и коллективного обсуждения.

Abstract

This article substantiates the technology of preparing future teachers for mediation activities based on the communicative approach. It highlights the mechanisms for developing competencies such as communication culture, active listening, empathy, tolerance, and the teacher's role in preventing and resolving conflicts. Effective pedagogical conditions for preparing future mediators are justified through interactive methods, role-playing, problem-based situation modeling, and collaborative reflection.

Kalit so'zlar: kommunikativ yondashuv, mediatorlik faoliyati, bo'lajak pedagog, konfliktologiya, muloqot madaniyati, empatiya, hamkorlik, pedagogik texnologiya.

Ключевые слова: коммуникативный подход, медиативная деятельность, будущие педагоги, конфликтология, культура общения, эмпатия, сотрудничество, педагогическая технология.

Key words: communicative approach, mediation activity, future teachers, conflict resolution, communication culture, empathy, collaboration, pedagogical technology.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida shaxslararo muloqotning samarali tashkil etilishi, o'quvchi va pedagog o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning madaniy me'yorlarda olib borilishi muhim metodik hamda ijtimoiy vazifa sifatida qaraladi. Jamiyatning axborotlashtirilishi, kommunikatsion jarayonlarning murakkablashuvi, turli ijtimoiy guruhlar orasida manfaatlar to'qnashuvining kuchayishi ta'lim muassasalarida ham muayyan nizoli holatlarning yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. Bunday vaziyatlarda pedagogning vazifasi faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki konstruktiv muloqotni tashkil eta olish, kelishmovchiliklarni uyg'unlashtirish va o'quvchilarni ijtimoiy jihatdan to'g'ri yo'naltira olishdan iborat bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak pedagoglarning nizoli holatlarni boshqarish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha mediatorlik kompetensiyalarini shakllantirish ta'lim tizimining dolzarb nazariy-amaliy yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.

Mediatorlik faoliyati mohiyatan tomonlar o'rtasida kelishuvga erishish jarayonini tashkil etish, vositachi sifatida xolis pozitsiyada turish va murosaga olib keluvchi kommunikativ

mexanizmlarni ishga solishni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonda pedagog nafaqat axborot yetkazuvchi va nazorat qiluvchi subyekt, balki ijtimoiy muloqot jarayonlarini boshqaruvchi, hissiy holatlarni sezuvchi, vaziyatni baholovchi faol koordinator sifatida maydonga chiqadi. Demak, mediator pedagog shaxsida muloqot madaniyati, emotsional barqarorlik, empatiya, tolerantlik, faol tinglash, refleksiya kabi shaxsiy-professional sifatlarga ehtiyoj seziladi. Mazkur sifat va kompetensiyalarni shakllantirishda kommunikativ yondashuvning o'zni beqiyosdir. Chunki ushbu yondashuv pedagogik jarayonda shaxsning faol ishtirokini ta'minlaydi, subyektlararo muloqotning mazmuniy tomonini boyitadi, tinglash va eshitish madaniyatini rivojlantiradi, shuningdek, konstruktiv muloqot asosida nizolarni boshqarishga imkon yaratadi. Shuning uchun ham bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlashda kommunikativ yondashuvni markaziy metodik prinsip sifatida qo'llash pedagog kadrlarning professional yetukligini ta'minlashda muhim pedagogik shart hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Pedagogning vositachilik (mediatorlik) faoliyatini amalga oshirishga doir nazariy asoslar psixologiya va pedagogika fanida turli ilmiy maktablar tomonidan ishlab chiqilgan. Xususan, L.S.Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan sotsiokultural yondashuvga ko'ra, shaxs rivojlanishi jamiyatdagi o'zaro muloqot jarayonlari orqali shakllanadi va bu jarayonda pedagog kommunikativ vositachi sifatida muhim rol o'ynaydi. J.Brunerning konstruktivistik ta'lim konsepsiyasida esa o'quvchi va pedagog o'rtasidagi o'zaro aloqa bilimlarni faol ravishda qurishning asosiy sharti sifatida ko'riladi. A.Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi shaxs xulq-atvori va ijtimoiy kompetensiyalari, jumladan muammoli vaziyatlarda o'zini tutish ko'nikmalari kuzatish va muloqot orqali shakllanishini asoslaydi. K.Rodgersning insonparvarlik yondashuvida esa empatiya, ochiq muloqot, hurmat va ijobiy qabul qilish kabi jihatlar muvaffaqiyatli vositachilik faoliyatining asosiy psixologik omillari sifatida talqin etiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha tadqiqotlarda (B.Gurevich, A.V.Khutorskoy, J.Richards, D.Nunan) kommunikativ yondashuv o'quv jarayonining markazida muloqot faoliyatini qo'yadi va ta'lim oluvchining shaxs sifatida faolligini ta'minlashga qaratilgan metod sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv mediatorlik faoliyatining tarkibiy asoslari bo'lgan faol tinglash, muzokara yuritish, vaziyatga mos til birikmalarini tanlash va ijtimoiy-emotsional o'zaro ta'sirni boshqarishni rivojlantirishga keng imkoniyat yaratadi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham ushbu masala turli pedagogik nuqtai nazardan o'rganilgan. Jumladan, A.Ochilov va M.Usmonboeva ishlarida pedagogik hamkorlik tamoyillari hamda o'quvchi-shaxsning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari asoslab berilgan. S.Nishonova va G.Yuldasheva tadqiqotlarida esa pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish, interfaol usullardan foydalanishning metodik asoslari hamda ta'lim jarayonida shaxslararo munosabatlarni uyg'unlashtirish yo'llari yoritilgan. Shunga qaramay, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonini aynan kommunikativ yondashuv asosida texnologik model sifatida tizimli shakllantirish masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ushbu yo'nalishda mediatorlik kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish mexanizmlari, ta'lim jarayoniga integratsiyalash strategiyalari va baholash mezonlarini aniqlashtirish zaruriyati mavjud.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mavzuning metodologik asosini pedagogik va psixologik fanlarning nazariy tamoyillari hamda shaxslararo muloqotni tashkil etishning kommunikativ yondashuvga tayanuvchi konseptual qarashlari belgilab berdi. Tadqiqot davomida bir qator ilmiy tadqiqot metodlaridan kompleks ravishda foydalanildi.

Birinchidan, pedagogik-psixologik adabiyotlarni tizimli tahlil qilish orqali mediatorlik faoliyatining nazariy asoslari, mediator shaxsining kasbiy-axloqiy va kommunikativ kompetensiyalari aniqlashtirildi. Ikkinchidan, ta'lim jarayonini bevosita kuzatish, diagnostik testlar va suhbatlar yordamida bo'lajak pedagoglarning muloqot madaniyati hamda nizoli vaziyatlarda o'zini tutish darajasi o'rganildi. Uchinchidan, trening mashg'ulotlari va interfaol metodlar asosida modellashtirilgan amaliy vaziyatlar orqali mediatorlik faoliyati uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni sinovdan o'tkazish va mustahkamlash imkoniyati yaratildi. To'rtinchidan, refleksiv tahlil va yakka suhbatlar yordamida ishtirokchilarning ichki o'zgarish dinamikasi, tajriba almashinuvi va shaxsiy

PEDAGOGIKA

rivojlanish trayektoriyalari baholandi. Bu metodlar o'zaro uyg'un holda qo'llanilgani sababli tadqiqot jarayoni real ta'lim sharoitlari va mediatorlik faoliyatining psixologik xususiyatlarini chuqur hamda tizimli tahlil qilish imkonini berdi.

O'tkazilgan tadqiqotlar mediatorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonini kommunikativ yondashuv asosida bosqichma-bosqich tashkil etish samaradorligini ko'rsatdi. Mazkur jarayonning tarkibiy tuzilmasi quyidagi pedagogik bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Birinchi – motivatsion bosqich, unda talabalarda mediatorlik faoliyatining mazmun-mohiyati, jamiyat va ta'lim tizimidagi o'rni, shuningdek, nizoli holatlarda vositachining tutgan pozitsiyasi va mas'uliyatiga oid konseptual tasavvurlar shakllantiriladi. Ushbu bosqichda tematik suhbatlar, interfaol muhokamalar, media-prezentatsiyalar va real hayotdan olingan keyslarni tahlil qilish orqali talabalarining ushbu faoliyatga nisbatan shaxsiy qiziqishi va ichki ehtiyoji rag'batlantiriladi.

Ikkinchi – amaliy-trening bosqichi, mediatorlik jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan amaliy kompetensiyalarni mustahkamlashga qaratiladi. Bu yerda nizoli vaziyatlarni aniqlash, konflikt turlarini tasniflash, vositachilik strategiyalarini tanlash va qo'llash ko'nikmalari shakllantiriladi. Rol o'yinlari, vaziyatli topshiriqlar, mediatsiya jarayonini modellashtirish va guruhli trening sessiyalari ushbu bosqichning asosiy metodlarini tashkil etadi.

Uchinchi – kommunikativ-aksiologik bosqich, mediator shaxsining ijtimoiy-psixologik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, unda faol tinglash, «Men-xabari» kommunikativ modeli, empatiya, tolerantlik, emotsional o'zini boshqarish kabi ijtimoiy-kommunikativ mexanizmlar shakllantiriladi. Ushbu bosqichda muloqotning aks ettiruvchi dialog usullari va hamkorlikka asoslangan kommunikativ treninglar muhim o'rin tutadi.

To'rtinchi – refleksiv-baholash bosqichi mediatorlik jarayonida ishtirokchi sifatidagi shaxsiy o'sish dinamikasini anglash, o'z-o'zini baholash hamda faoliyat natijalarini tahlil qilishni nazarda tutadi. Refleksiv kundaliklar yuritish, portfoliolar tuzish, individual suhbatlar va refleksiv tahlil sessiyalari talabalarining o'z tajribasini ongli ravishda qayta ishlashiga yordam beradi.

Umuman olganda, tajriba-sinov ishlarining natijalari shuni ko'rsatdiki, kommunikativ yondashuv asosida loyihalashtirilgan mazkur pedagogik texnologiya:

talabalarda muloqot madaniyati va nutqiy savodxonlikning barqaror rivojlanishiga,

ziddiyatlarni konstruktiv ravishda boshqarish va hal etish bo'yicha amaliy kompetensiyalarning shakllanishiga,

shuningdek, empatiya, o'zaro hurmat, bag'rikenglik va ijtimoiy hamkorlikka tayyorlik kabi shaxsiy fazilatlarning mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Natijada, bo'lajak pedagogning ta'limiy hamkorlikni tashkil etishdagi vositachilik salohiyati yanada takomillashadi, bu esa ta'lim muhitida sog'lom psixologik-ijtimoiy atmosfera yaratilishiga xizmat qiladi. Yuqoridagi ilmiy tahlillar shuni tasdiqlaydiki, bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonida kommunikativ yondashuvga tayanish ularning professional, axloqiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Treninglar, interfaol mashqlar, vaziyatlarni modellashtirish va refleksiv o'rganish asosida qurilgan metodik tizim pedagog shaxsining kommunikativ savodxonligi, konfliktologik madaniyati va vositachilik mahoratini chuqurlashtiradi. Taklif etilgan texnologiyaning oliy pedagogik ta'lim dasturlariga integratsiyalashuvi nafaqat bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiradi, balki ta'lim muassasalarida konstruktiv muloqot va ijobiy psixologik muhitni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **Vygotskiy L.S.** *Psixologiya razvitiya rebenka*. – Moskva: «Pedagogika», 1984. – **287 b.**
2. **Bandura A.** *Social Learning Theory*. – Englewood Cliffs, New Jersey: Prentice-Hall, 1977. – **247 p.**
3. **Xutorskoy A.V.** *Pedagogik texnologiyalar asoslari*. – Moskva: «Akademiya», 2002. – **320 b.**
4. **Usmonboeva M.** *Pedagogik muloqot va hamkorlik*. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2016. – **156 b.**
5. **Nunan D.** *Communicative Language Teaching: A Practical Guide*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991. – **224 p.**